



**Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik
subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari**


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 9 975 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi






Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-yanvar holatiga, birlik	2026-yil 1-yanvar holatiga, birlik
Sirdaryo viloyati	8 639	9 975
Guliston shahri	2 081	2 405
Shirin shahri	198	229
Yangiyer shahri	662	817
Oqoltin tumani	593	653
Boyovut tumani	694	864
Sayxunobod tumani	611	613
Guliston tumani	642	717
Sardoba tumani	829	957
Mirzaobod tumani	742	900
Sirdaryo tumani	1 084	1 231
Xovos tumani	503	589

**Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**






II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2 165 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 748 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 483 ta, sanoatda 228 ta hamda boshqa xizmatlarda 227 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Sirdaryo viloyati	1 794	2 165
Guliston shahri	362	540
Shirin shahri	31	44
Yangiyer shahri	107	180
Oqoltin tumani	174	121
Boyovut tumani	158	178
Sayxunobod tumani	125	110
Guliston tumani	164	150
Sardoba tumani	178	180
Mirzaobod tumani	204	230
Sirdaryo tumani	182	288
Xovos tumani	109	144



III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,5 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 26,1 % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13 792,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 52,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 131,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin (100,0 %), Boyovut (94,7 %), Xovos (90,0 %), Yangiyer shahar (82,1 %) va Mirzaobod (85,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami
sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 773,9 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 84,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 138,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (100,0 %), Guliston shahar (95,8 %) va Sayxunobod (94,5 %) tumaniga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi
dinamikasi**






**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiya faoliyati**

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 11 915,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 69,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 136,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahar (93,3 %), Yangiyer shahar (91,8 %), Sayxunobod (80,8 %) va Mirzaobod (77,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya
hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati 2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 17 065,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 89,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahar (97,3 %), Shirin shahar (99,7 %), Sayxunobod (98,8 %), Xovos (97,0 %) va Boyovut (94,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 899,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining ulushi 92,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Shirin shahri (100,0 %) Oqoltin (99,2 %), Xovos (99,2 %), Guliston (97,2 %) va Sayxunobod (97,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 9 802,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 67,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 197,1 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 70,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 501,5 mln AQSH dollarini yoki jami importning 75,6 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Guliston – 99,7 %, Oqoltin – 98,0 %, Boyovut – 99,5 %, Yangiyer shahar – 99,6 %, Xovos – 84,7 %, Sirdaryo tumanlarida – 77,6 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.


2025-yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 88,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,0 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,9 % ni tashkil qildi.



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,4 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dynamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari


Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 33,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida esa 34,8 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,1 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 57,2 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 56,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 9,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 8,8 % ga yetgan.



Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 54,7 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 48,2 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 41,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 44,8 % yoki 3,7 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabr oylariga kelib, bu ko'rsatkich 7,1 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)






Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 37,7 % ni, savdoda – 39,9,% ni va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida – 57,1,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 70,7 % ni, sanoatda – 52,8 % ni va savdoda – 49,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,0 % ni, sanoatda – 9,4 % ni va savdoda – 10,7 % ni tashkil etdi.



Biznes ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





**VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy
tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:

K. Yusupov
67 236-70-00 (2030)

Manzil:

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri,
Birlashgan ko'chasi, 62-uy
